

Uzbekistan Airways mini-futbol turnirida

2026 26 Yanvar

Bugun, 26-yanvar kuni O'zbekiston aviatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi kubogi doirasida sohaning yetakchi aviatsiya va turdosh tashkilotlari jamoalarini birlashtirgan mini-futbol turniri bo'lib o'tdi.



Turnirda quyidagi jamoalar ishtirok etdi:

- "Uzbekistan Airways" AJ
- "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK
- O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi
- Uzbekistan Airways Technics
- Uzbekistan Helicopters
- O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi (O'zgidromet)





"Uzbekistan Airways" AJ jamoasi tarkibida quyidagi futbolchilar maydonga tushdi: Diyorbek Ubaydullayev, Bekzod Narkulov, Doniyor Qutlimuratov, Jahongir Jo'raboyev, Elzod Sodiqov, Shohruh Shaazimov, Aleksandr Davidov, Islom Bekmirzayev, Abdumalik Ahrolov.

Turnirning barcha o'yinlari shiddatli, dinamik ruhda hamkasblar hamda muxlislarning faol qo'llab-quvvatlashi ostida o'tdi. Jamoalar yuqori jismoniy tayyorgarlik va jamoaviy natijaga intilishni namoyish etdilar.





Turnir yakunlariga ko'ra, sovrinli o'rinlar: birinchi o'rin - "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK, ikkinchi o'rin - Uzbekistan Airways Technics, uchinchi o'rin - "Uzbekistan Airways" Ajga nasib etdi.